



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI BOYSUN TUMANI HOKIMINING**  
**QARORI**

Boysun t., Hayot Abadiy ko‘chasi 1-uy. 190400, tel.: (+99876) 33-5-20-64, boysun\_t@exat.uz, http://baysun.uz

---

2021 йил «30» декабрь

254-8-110-Q/21

Бойсун туман ҳокимлиги

**Boysun tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha  
tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 4 apreldagi 101-son “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

**QAROR QILAMAN:**

1. Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining tarmoqlar bo‘yicha o‘rinbosarlari:

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me‘yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi hamda qabristonlarning ma’muriyati:

xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan

holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, ob‘ektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta‘minlasin.

4. Ushbu qaror “Boysun” gazetasida rasman e‘lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, mazkur qaror rasman e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari F.Normamatov zimmasiga yuklansin.

**Hokim**



**A.Ch.Jo'rayev**

Бойсун туман ҳокимининг  
2021 йил 30 декабрдаги  
254-8-110-Q/21-сон қарорига  
1-илова

**Boysun tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish  
bo'yicha tariflar miqdori**

so'm

<b>№</b>	<b>Xizmat turi</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>Tuman</b>
1.	Go'r qazish	1 o'ringa	Bepul
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o'ringa	Bepul
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	Bepul
4.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o'rin/kunga	Bepul